

O‘QUVCHILAR TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Xudoynazarova Zaynab Normo‘minovna
Surxondaryo viloyati, Sho‘rchi tumani,
54-umumta‘lim maktabi psixologi

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada o‘quvchilarda tafakkurni shakllantirish jarayoni, uning psixologik asoslari hamda ta‘lim jarayonida fikrlashni rivojlantirishning muhim usullari yoritiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishning dolzarb masalalari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: tafakkur, o‘quvchi, fikrlash, tanqidiy fikrlash, ijodiy tafakkur, ta‘lim, psixologiya.

KIRISH

O‘quvchilarda tafakkurni shakllantirish ta‘lim jarayonining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tafakkur — bu insonning borliqni anglash, tahlil qilish, umumlashirish va xulosa chiqarish qobiliyatidir. Rivojlangan tafakkur o‘quvchining bilimlarni chuqur o‘zlashtirishiga va mustaqil qaror qabul qilishiga yordam beradi.

Tafakkur shakllanishi bosqichma-bosqich amalga oshadi va u o‘quvchining yosh xususiyatlariga bog‘liq holda rivojlanadi. Boshlang‘ich sinflarda ko‘proq obrazli tafakkur ustun bo‘lsa, yuqori sinflarda mantiqiy va abstrakt tafakkur rivojlanadi.

O‘quvchilarda tafakkurni rivojlantirish uchun ta‘lim jarayonida faol metodlardan foydalanish zarur. Savol-javob, muammoli vaziyatlar yaratish, munozaralar tashkil etish o‘quvchilarning fikrlash faolligini oshiradi. Shuningdek, ijodiy topshiriqlar va mustaqil ishlar ularning tafakkurini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlashni shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega. O‘quvchi ma‘lumotni faqat qabul qilmasdan, uni tahlil qilishi, baholashi va o‘z fikrini bildira olishi kerak. Bu esa uning intellektual rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘qituvchining roli bu jarayonda juda katta. U o‘quvchilarni erkin fikrlashga undashi, savollar berish orqali ularni izlanishga yo‘naltirishi lozim. Ijobiy psixologik muhit esa o‘quvchilarning o‘z fikrini erkin bayon etishiga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish tafakkurni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Interaktiv darslar, multimedia materiallar o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va fikrlash jarayonini faollashtiradi.

Ushbu tafakkur turi boshqa tafakkur turlariga asos bo‘lib, so‘z boyligi, mantiqiy tafakkurning shakllanishi, kelajakdagi maktab darslarini a‘lo darajada o‘zlashtirishda ko‘maklashadi. Bolalar o‘z tabiatlariga ko‘ra haddan tashqari qiziquvchan bo‘ladi. Ular hamma narsani bilishi juda zarur: ta‘mini tatib ko‘rishi, ushlab ko‘rishi, tushunarsiz va

yangi bo‘lgan narsalarga o‘z tushuntirishlarini o‘ylab topishi, tajriba o‘tkazib ko‘rishi va o‘z farazlarini tekshirishi.

Har bir ota-ona o‘z farzandiga uni o‘rab turgan olamni tanishga yordam berishi zarur. Bola 3 yoshigacha asosan predmet va harakatlarning nomlarini o‘zlashtiradi. Nomlar ko‘pincha ularning vazifasini anglatadi, shu bois predmet yoki harakatning tashqi ko‘rinishi o‘zgarsa ham, uning nomi o‘zgarmaydi. Shuning uchun bola predmetlarning nomlarini ularning vazifasi bilan bog‘lagan holda tez o‘zlashtiradi.

Maktab tarbiya yoshida bolaning analizatorli idrok etish jarayoni yanada takomillashadi. Bola hayotining uchinchi yilida beixtiyor idrok asta-sekin maqsadga yo‘naltirilgan, tanlangan idrokka aylanadi va kuzatuvchanlik shakllanadi. Idrok etishda so‘zning roli ortadi: bola narsalarning belgilangan sifatlari va xususiyatlarini aytib bera boshlaydi. Idrok jarayoni bolaning tafakkurini rivojlantiradi hamda uning faoliyati davomida tobora takomillashib boradi.

Maktab yoshdagi bolaning tasavvurlari kengayib, bilimlari ortishi uning aqliy faoliyati xarakterini o‘zgartiradi. Nutqning rivojlanishi va faoliyat doirasining kengayishi yangi tafakkur shakllarining paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

5–6 yoshli bola avval tasvirlaydi, so‘ng muhokama qiladi va umumlashtiradi. Bu yoshdagi bolaning tafakkuri aniq-obrazli, emotsional va yaqqol xarakterga ega. Muhokama bevosita predmet va hodisalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bola umumlashtirilgan tushunchalarni o‘zlashtira boshlaydi, fikr yuritish operatsiyalari esa nafaqat idrokka, balki xayolga ham tayanadi. Dastlabki hukmlar chiqarish va xulosa yasash ko‘nikmalari shakllanadi.

Bu yoshdagi bolaning xotirasi ham yangi faoliyatlar va qo‘yilayotgan talablar asosida rivojlanadi. Bog‘cha yoshidagi bolalar o‘zlari uchun ahamiyatli, kuchli taassurot qoldirgan va qiziqarli bo‘lgan narsalarni beixtiyor eslab qoladilar.

Maktab yoshda bolaning tafakkuri juda tez rivojlanadi. Buning sabablari:

- turmush tajribasining ortishi;
- nutqning rivojlanishi;
- mustaqil harakat qilish imkoniyatining kengayishi.

Bolalarda turli savollarning paydo bo‘lishi tafakkurning faollashayotganidan dalolat beradi. Agar bola o‘z savollariga javob topa olmasa yoki kattalar bunga e‘tibor bermasa, uning qiziquvchanligi susayadi.

Bolaga ta‘limni erta ham, kech ham emas, balki o‘z vaqtida berish muhim. Ta‘lim jarayonida bolaning barcha sezgi organlari jalb etilishi kerak. Ya‘ni bola teginish, ko‘rish, eshitish, hidlash va ta‘m bilish orqali mustaqil o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim.



Bolaga kichikligidan axloqiy tarbiya berish miya rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Kattalarni hurmat qilish, salomlashish, yo‘l harakati qoidalariga amal qilish kabi odatlar bolaning kelajakda kam xato qilishiga yordam beradi.

Bilim olish bola uchun quvonch manbai bo‘lishi kerak. Bolani majburlab o‘qitish, o‘yindan mahrum qilish stressga olib kelishi mumkin. Natijada turli muammolar yuzaga keladi. Bola bilimni o‘z xohishi bilan o‘zlashtirishi muhim.

Agar bola o‘rganishni istamasa, demak ota-ona uni qiziqtirish yo‘lini topa olmagan bo‘ladi. Shu sababli ota-onalar bolaning rivojlanishi uchun kichikligidan qulay va qiziqarli muhit yaratishlari zarur.

Bolaning ijodiy va mantiqiy tafakkurini rivojlantirish uchun quyidagi faoliyatlar samarali:

Kitob o‘qish. Bola bilan birga kitob rasmlarini ko‘rib chiqish, hikoya mazmunini qayta so‘zlatish foydalidir. Bu nutq va tafakkurni rivojlantiradi.

Chizish. Bo‘yoq, qum yoki un bilan chizish bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Chala rasmni tugallash topshiriqlari tafakkurni faollashtiradi.

Grafik diktant. Geometrik shakllar yoki predmetlarni aytib, bolaga chizdirish diqqat va tasavvurni rivojlantiradi.

Bo‘yash. Tayyor rasmlarni bo‘yash orqali bola tasavvur, rang sezish va motorikani rivojlantiradi.

Pazl va domino o‘yinlari. Bu o‘yinlar xotira va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Origami va qog‘oz bilan ishlash. Qog‘ozdan shakllar yasash tasavvur va mayda motorikani rivojlantiradi.

O‘yin. O‘yin bola uchun eng muhim ta’lim vositasi hisoblanadi. U orqali bola borliqni anglaydi, muammolarni hal qilishni o‘rganadi va o‘z fikrini ifodalashni rivojlantiradi. Yosh o‘quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda neyrotexnologiyalardan foydalanish samaradorligini o‘rganish uchun turli tadqiqot uslublari va yondashuvlar muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy ta’lim jarayoni faqatgina nazariy konsepsiyalarga asoslangan holda emas, balki empirik tadqiqotlar va amaliy tajribalar orqali ham o‘rganilishi lozim. Shu sababli, ushbu maqolada neyrotexnologiyalarning ta’limdagi roli va samaradorligi turli eksperimental va tahliliy metodlar yordamida o‘rganildi.

Birinchi navbatda, neyrotexnologiyalar bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinib, ularning ta’limga ta’siri statistik ma’lumotlar asosida baholandi. Dunyoning turli mamlakatlarida neyrofeedback, sun’iy intellekt va adaptiv o‘qitish tizimlari yordamida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari ko‘rib chiqildi. Ushbu tadqiqotlar o‘quvchilarning diqqat va xotira rivojlanishida neyrotexnologiyalarning qanday rol o‘ynashini aniqlash imkonini berdi.

Shuningdek, tajriba-sinov metodidan foydalanildi. Yosh o‘quvchilar orasida neyrotexnologiyalarning samaradorligini o‘rganish maqsadida kichik guruhlar bilan

interaktiv mashg'ulotlar tashkil etildi. Ularda maxsus neurofeedback dasturlari, virtual haqiqat texnologiyalari va sun'iy intellekt asosida adaptiv ta'lim vositalari sinovdan o'tkazildi. Ushbu tajriba natijalari o'quvchilarning bilim olish tezligi, tafakkur rivojlanishi va ijodiy fikrlash qobiliyatlari bilan bog'liq statistik ma'lumotlar to'plashga yordam berdi.

Tahliliy yondashuv sifatida neyropsixologiya va pedagogika sohasidagi yetakchi mutaxassislarning ilmiy qarashlari o'rganildi. Xususan, kognitiv psixologiya va neyrobiologiya tamoyillariga asoslangan holda, miyadagi asab hujayralari faolligini oshirish orqali o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirish usullari tahlil qilindi. Ushbu yondashuvlar orqali ta'lim jarayoniga neyrotexnologiyalarni qanday samarali integratsiya qilish mumkinligi haqida xulosalar chiqarildi.

Bundan tashqari, pedagoglar va ta'lim sohasi mutaxassislari bilan suhbatlar o'tkazilib, neyrotexnologiyalarning amaliy qo'llanilishi, uning afzalliklari va mumkin bo'lgan cheklovlari muhokama qilindi. Ularning fikr-mulohazalari asosida ta'lim jarayonida neyrotexnologiyalarni qo'llash bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Umuman olganda, ushbu metodologik yondashuvlar yosh o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda neyrotexnologiyalarning samaradorligini aniqlash, uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish va kelajakdagi tadqiqotlar uchun ilmiy asos yaratishga xizmat qiladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarda tafakkurni shakllantirish — bu murakkab, ammo muhim jarayon bo'lib, u to'g'ri tashkil etilgan ta'lim, samarali metodlar va ijobiy muhit orqali amalga oshiriladi. Rivojlangan tafakkur esa o'quvchining kelajakdagi muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
2. А.Х.Югай, Н.А.Мираширова “Общая психология” – Ташкент 2014.
3. Дружинина В.. “Психология “. Учебник. “Питер”, 2003.
4. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. – М., Аспект Пресс, 2002. – 383с.
5. Ziyo.net